

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TOIFALI ILMIY VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLARNI TAYYORLASH

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta‘lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti, mustaqil izlanuvchilik) doktoranturada ta‘lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.



2019 yil 1 yanvar holatiga falsafa doktori darajasi izlanuvchilar soni respublika bo‘yicha 63 kishini tashkil qildi. 30 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilar qabul qilinib 12 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilar bitirdi.

### 2018 yilda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimi-tayanch doktorantura institutlarining asosiy ko‘rsatkichlari

	Tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlar soni	Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilar soni	Ulardan ayollar	2019 yil 1 yanvar holatiga falsafa doktori darajasi izlanuvchilar soni	Ulardan ayollar	Bitirgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilar soni	Ulardan ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	5	30	11	63	24	12	5	3

### 2018 yilda hududlar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimi - doktorantura institutlarining asosiy ko‘rsatkichlari

	Doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni	2018 yilda qabul qilingan fan doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	2019 yil 1 yanvar holatiga katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar soni	Ulardan ayollar	Bitirgan fan doktori darajasi izlanuvchilari	Ulardan ayollar	Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	4	3	2	5	3	1		

## ILMIY-TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLANMALARINING BAJARILISHI

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo‘naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi.

Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalari bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar soni 2018 yilda 30 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2018 yilda 8261,4 million so‘mda tashkil etdi.

### 2018 yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida ish turlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarning bajarilishi

mln.sóm

	Bajarilgan ishlar qiymati	
	Jami	shu jumladan óz kuchi bilan bajarilgani
Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar hajmi	<b>8261,4</b>	<b>7040,6</b>
shu jumladan		
Ilmiy-tadqiqotlar (Ilmiy-tadqiqot ishlari)	6981,2	6783,8
ulardan		
fundamental tadqiqotlar	1343,8	134,8
amaliy tadqiqotlar	5637,4	5440,0
qurilish uchun loyiha ishlari	86,6	86,6
ilmiy-texnik xizmatlar	1193,7	170,2

**2018 yilda fan sohalari bóyicha hududlar kesimida ilmiy tadqiqot va  
tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar**

mln.sóm

	Jami	Shu jumladan:					
		tabiiy fanlar	texnika fanlari	tibbiyot fanlari	qishloq xo‘jaligi fanlari	ijtimoiy fanlar	gumanitar fanlar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13489,6	4823,2	1576,3	33,6	1796,1	1517,8	3742,6

**Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar  
(2014-2017 yillar)**

	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo‘shgan holda)	1834	1838	1826	1917	1869
shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar	469	476	558	464	433

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo‘lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2018 yilda 433 nafarni tashkil etdi.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi  
Tel.: (61) 222-79-83  
(71) 230-82-04**